

Amir Temur -Buyuk Davlat Asoschisi Va Bunyodkori

*Karimova E'zoza Nuriddin qizi*¹

Anatatsiya: Ushbu maqolada buyuk sarkarda va davlat arbobi Amir Temur faoliyati, uning davlat boshqaruvidagi adolatli islohotlari va olimlarning Temur haqidagi fikr mulohazalari yoritib o'tilgan va yosh avlodni buyuk tariximizni o'rganishga undovchi fikrlar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Ilm-fan homiysi, davlat arbobi, davlat boshqaruvi, manaviy meros, "Temur tuzuklari", 12 tabaqa, podshoning hukmi.

Bashariyat tamaddunining rivojiga ulkan hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimizdan biri, mohir sarkarda, ilm-fan homiysi va davlat arbobi Amir Temur haqida so'z borar ekan, uning jahon tarixida ko'rsatgan bemisl qahramonliklari-yu, davlat qurishdagi yuzlab islohotlari haqida ham kelajak avlod sifatida o'rganishimiz va shu bilan birgalikda bugungacha butun jahonni e'tibor markazida bo'lib kelayotgan bu ajdodimizning madaniy va ma'naviy merosini to'g'risida ilmiy izlanishlar qilishimiz bizning bosh burchimizdir.

Bu borada Temur asos solgan davlat va uning davlat boshqaruvi usullari o'zbek va jahon adiblari tomonidan haligacha tadqiq qilinmoqda. Jumladan o'sha davrda jamiyat ozodlik va taraqqiyotga bo'lgan manfaatlarini o'zida mujassam etgan haloskorga, yetakchiga muhtoj edi. Taqdir taqozosi bilan Amir Temur ana shunday haloskor va yetakchi sifatida maydonga chiqdi.[1:3] Sohibqiron yashagan davr murakkab bir davr ediki, unda zamon ham daholarga muhtoj edi. Bir dono inson shunday degan edi: "Qiyin paytlarda kuchli odamlar tug'iladi, kuchli odamlar yaxshi vaqtlarni yaratadilar, yaxshi vaqtlar zaif odamlarni dunyoga keltiradi va zaif odamlar qiyin kunlarni yaratadilar. Binobarin, XIV asrda Movarounnahrda murakkab vaziyatda, ulug' bobomiz zimmasiga insoniyatni taraqqiyotning keng va tekis yo'liga olib chiqishdek bag'oyat sharafligi vazifa yuklatilgan edi.

Amir Temur o'z faoliyatida adolatni bosh mezon qilib olganligi hammamizga ma'lum. Jumladan Sohibqiron o'z "Tuzuklar"ida shunday deydi: "...adolat va insof bilan tangrining yaratgan bandalarini o'zimdanda rozi etdim. Gunohkorga ham, begunohga ham rahm-shavqat bilan haqqoniyat yuzasidan hukm chiqardim".[2:5] Darhaqiqat, Temur mohir siyosatchi edi. U o'zidan avval o'tgan podsholardan farqli o'laroq davlat va mamlakatni boshqarishda bir yoki ikki tabaqaga emas, balki aholining barcha tabaqalariga suyanganidan ham uning mohirligi va adolatini bilishimiz mumkin. Mana o'sha tabaqalar:

1. Sayyidlar, ulam, mashoyix, fozil kishilar, ya'ni ziyolilar;
2. Ishning ko'zini biladigan donishmand kishilar;
3. Xudojo'y, darvish va qalandarlar;
4. No'yonlar;
5. Sipoh va raiyat;
6. Maxsus, ya'ni ishonchli kishilar;
7. Vazirlar va sarkotiblar;
8. Hakimlar;
9. Tafsiir va hadis olimlari;
10. Ahli sanoat;
11. So'fiylar;
12. Tujjor va sayyohlar.

Amir Temurning sarkardalik va davlat boshqarish faoliyatini o'rganish davomida, bosh tamoyil sifatida "Kuch-adolatda" degan shiorga juda amal qilgani, shuningdek, har bir amalida adolat va tenglik masalalariga jiddiy yondashganiga guvoh bo'lamiz.

¹ O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti "Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish va boshqarish" ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi

Masalan, uning turk sultoni Boyazidga bo'lgan shohlarcha munosabati haqiqiy oliyjanoblikdir. Biroq, tarixda Amir Temur Boyazidga va uning o'g'illariga nisbatan shavqatsiz munosabatda bo'lgan degan noto'g'ri fikrlar yuradi. Volter o'z davridayoq bunday uydurmalarining g'irt yolg'onligini tasdiqlaydi:

“Temurning hayotini qalamga olgan birorta arab yoxud fors adibi u Boyazidni temir qafasga solgani haqida yozmaydi; biroq turk manbalarida shunday rivoyat mavjud, - deb yozadi u va buning sababini qidirishga harakat qiladi. Balki ularning maqsadi Amir Temurni o'ta shavqatsiz qilib ko'rsatish bo'lsa kerak?” [4:117] Fransuz olimlari Jerar Volter hamda Marsel Brionlar tomonidan Amir Temur Sohibqironni “XV asrning taqdirini hal qilgan buyuk inson” deya ta'riflanishi [5:4] bu hukmdorning tarixiy taraqqiyot jarayoniga o'z ta'sirini o'tkazganidan dalolatdir.

Temur ulkan markazlashgan davlat asoschisi sifatida albatta podshohlik ishlariga jiddiy munosabatda bo'lgan. O'z hukmlarining joriy etilishi yuzasidan qattiq nazorat olib borgan. Podshoning hukmi ta'siri cho'p va kaltaklash ta'siridan yuqori turishi kerakligi haqida ko'p aytgan. Bu borada butun boshli davlatni bo'lib bergan o'g'illari, zurriyodlariga ayniqsa, juda qattiqqo'l bo'lgan. Amir Temur shunday deydi: “Agar o'g'illarimdan qaysi birovi saltanat martabasiga davogarlik qilib bosh ko'tarar ekan, uni urib-so'kib, o'ldirishga yoki muchasidan biron joyini kamaytirishga hech kim jur'at qilmasin, lekin uni ko'z tagida saqlasinlarki, toki o'z da'vosidan qaytsin va tangri taoloning mulkida fasod chiqmasin”.[6:25]

Temur haqida qancha so'z yuritmaylik shuncha kam deb o'ylayman. Bu buyuk zotni maqtash, u asos solgan davlat tarixini, davlatdagi boshqaruv usullarini o'rganish asnosida tariximiz va ajdodlarimizning naqadar buyuk bo'lganligiga guvoh bo'lib boraveramiz. Chindan ham, har qanday ishga mardona kirishuvchi, uzoqni ko'ra bilib, o'z oldiga qo'ygan maqsadini ikir-chikirigacha albatta amalga oshiruvchi va har qanday hatarli tavakkalchiliklari ham zafarga eltuvchi bu inson chindan ham Xudoning tanlagan bandasi edi.[7:62] Amir Temur dahosiga nazar tashlash, uni ulug'lash - chuqur ildiz otgan tariximizga, butun dunyo e'tiborini o'ziga jalb qilib kelayotgan madaniyatimiz va qudratimizga asoslanib biz kutayotgan buyuk kelajagimizga bo'lgan ishonchimizni yanada mustahkamlash demakdir. Bizga qoldirilgan ulkan ma'naviy merosning ko'p qismi bevosita Amir Temur va uning avlodlari tomonidan ekanligini yaxshi anglagan holda shuni aniq ayta olamizki, Amir Temur shaxsini idrok etish- tarixni idrok etish demakdir. Amir Temurni anglash - o'zligimizni anglash demakdir. [8:34]

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. X. Ibrohimov. Sohibqironni anglash (esse). - T.: “Fan va texnologiya”, 2014, 1028 bet
2. A.Temur. Tuzuklar. O'zbek, ingliz, fransuz va rus tillarida. - T.: Extremum-press, 2016. - 544 bet
3. Ahmedov B. Amir Temurni yod etib. - Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fan” nashriyoti, 2018. - 392 bet
4. Ermatov B. Amir Temur G'arbiy Yevropa adiblari nigohida. Monografiya. Toshkent/ “Navro'z” nashriyoti, 2019 yil, 256 bet.
5. X.Ibrohimov. Sohibqironni anglash (esse). - T.: “Fan va texnologiya”, 2014, 1028 bet
6. Tuzuvchilar: B. Axmedov, A. Aminov. Amir Temur o'g'itlari [To'plam]. - T.: Navro'z, 1992. - 64 b
7. Brion Marsel. Amir Temur/Abdulla Qodiriy. - Toshkent: “Nurafshon business” nashriyoti, 2020 -248 b
8. I Karimov. Amir Temur haqida so'z. - T.: O'zbekiston, 1996. - 62bet